

MA'NAVIYAT VA MA'RIFATNING QUTLOVI

Shunday qudratli kuch borki, uni qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rib, tish bilan tishlab, burun bilan hidlab, quloq bilan tinglab bo'lmaydi. Faqat his etish mumkin bo'lgan, lekin qudratli va yengilmas kuch bu ma'naviyatdir. Daraxt soyasi va mevasi bilan qimmatli bo'lgani singari ma'naviyat ham g'oyasi va shevasi bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, u eng ta'sirchan va qudratli quroldir. Jamiyat rivojining o'zani va o'zagi ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'lanar ekan, bunga e'tibor ham shunga mos holda, yuqori darajada bo'lishi tayin. Shuning uchun ham davlatimiz rahbarining "ma'naviy yo'nalishlarimiz iqtisodiy yo'nalishlarimizdan o'n qadam oldinda yurmas ekan, biz zalvorli maqsad va vazifalarni, istiqbolli rejlarni amalga oshira olmaymiz" mazmunidagi o'g'itlari bejiz emas. Buning o'ziyoq, ma'naviyatning zamirida uzluksiz talim va uzluksiz tarbiya yotishi muqarrarligini bildiradi.



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan Xorazm viloyatida "Ma'naviyat festivali"ning o'tkazilishi ham ana shu harakatning uzviy davomidir.

Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimiz madaniy merosining o'ziga xos xususiyatlari, ma'rifiy ahamiyatini yoritish bilan bir qatorda, aholi o'rtasida ichki turizmni rivojlantirish, zamonaviy texnologik vositalardan samarali foydalangan holda tarixiy obidalar haqida ma'lumot berib, targ'ibot-tashviqotini kuchaytirishdir.

Festival yakunida "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda institutimizning Matbuot xizmati rahbari, filologiya fanlari nomzodi Rahimboy Jumaniyozovning ham faxriy yorliq, sovrin va diplomga ega bo'lganligi bizni g'ururlantirmasdan qolmaydi. Ustozning faqat institut doirasidagina emas, balki butun Respublika miqyosida ma'naviy va ma'rifiy harakatni yetakchilardan biri ekanligi instittimiz profesor-o'qituvchilarini ham ruhlantirishi aniq.



Ularning yaqinda "Ma'naviyat" nashiryotida chop etilgan "Targ'ibotchi mahorati" risolasi, "O'zbekiston" nashiryot-matbaa ijodiy uyida nashr etilgan "Siz notiq bo'lmoqchimisiz?" nomli uslubiy qo'llanmasi uning shu sohaning nazariyotchisi, ham amaliotchilaridan biri ekanligini isbotlaydi. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etib kelayotgan tashabbuskor targ'ibotchilarga "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan faxriy yorliq, diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari taqdim qilinishi shu soha vakillariga yanada kuch-g'ayrat baxsh etdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ustoz, mamlakimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko'lamli bunyodkorlik islohotlarini targ'ib etishdagi tashabbuskorligingiz uchun "YILNING ENG FAOL MA'NAVIYAT TARG'IBOTCHISI" diplomini qo'lga kiritganingiz bilan samimiy tabriklaymiz. Unvon va darajalar bardavom bo'lsin!

"Gumanitar fanlar" kafedrasining assistenti Bahriddin Muqimov axboroti